



ON THE SIGNIFICANCE OF THE “CENTRAL ASIA – CHINA” FORMAT

Mirabbos Mirgiyosov

Researcher

Tashkent State University of Oriental Studies

Tashkent, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: Central Asia, China, “Central Asia–China” format, regional integration, Belt and Road Initiative, economic cooperation, stability, strategic partnership.

Received: 01.11.25

Accepted: 02.11.25

Published: 03.11.25

Abstract: This article analyzes the significance of the “Central Asia–China” format as a new framework for regional cooperation encompassing political, economic, and cultural dimensions. The study highlights its pivotal role in accelerating regional integration, developing transport and logistics infrastructure, and strengthening mutual trust and stability. Closely aligned with China’s “Belt and Road Initiative,” this platform provides Central Asian countries with expanded opportunities for economic growth, investment inflows, and innovative collaboration.

MARKAZIY OSIYO – XITOY” FORMATI AHAMIYATI HAQIDA

Mirabbos Mirg'iyosov

Tadqiqotchi

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti

Toshkent, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: Markaziy Osiyo, Xitoy, “Markaziy Osiyo – Xitoy” formati, mintaqaviy integratsiya, “Bir makon – bir yo'l”, iqtisodiy hamkorlik, barqarorlik, strategik sheriklik.

Annotatsiya: Mazkur maqolada “Markaziy Osiyo – Xitoy” formati doirasida shakllanayotgan yangi hamkorlik tizimining siyosiy, iqtisodiy va madaniy jihatlarini yoritiladi. Ushbu format mintaqaviy integratsiya jarayonlarini jadallashtirish, transport-logistika tarmoqlarini rivojlantirish hamda o'zaro ishonch va barqarorlikni mustahkamlashda muhim o'rin tutadi. Xitoyning “Bir makon – bir yo'l” tashabbusi bilan uyg'unlashgan holda, mazkur platforma

Markaziy Osiyo davlatlari uchun iqtisodiy o'sish, investitsiya oqimlari va innovatsion hamkorlik imkoniyatlarini kengaytirmoqda.

О ЗНАЧЕНИИ ФОРМАТА “ЦЕНТРАЛЬНАЯ АЗИЯ – КИТАЙ”

Мираббос Миргиясов

Исследователь

Ташкентский государственный университет востоковедения

Ташкент, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: Центральная Азия, Китай, формат «Центральная Азия – Китай», региональная интеграция, «Один пояс – один путь», экономическое сотрудничество, устойчивость, стратегическое партнёрство.

Аннотация: В статье рассматривается значение формата «Центральная Азия – Китай» как новой модели регионального сотрудничества, включающей политические, экономические и культурные аспекты. Отмечается, что данный формат играет ключевую роль в ускорении процессов региональной интеграции, развитии транспортно-логистической инфраструктуры и укреплении взаимного доверия и стабильности. Взаимосвязанная с инициативой Китая «Один пояс – один путь», данная платформа открывает для стран Центральной Азии новые возможности экономического роста, инвестиций и инновационного взаимодействия.

Kirish. So‘nggi yillarda Markaziy Osiyo mintaqasi xalqaro siyosat, iqtisodiy integratsiya va transport-kommunikatsiya tizimlarining eng muhim geosiyosiy markazlaridan biriga aylandi. Ushbu jarayon nafaqat mintaq ichidagi o‘zgarishlar, balki global iqtisodiy kuchlar o‘rtasidagi raqobat, yangi savdo yo‘laklarining shakllanishi hamda mintaqaviy xavfsizlik masalalarining dolzarblashuvi bilan chambarchas bog‘liqdir. Ayniqsa, Xitoy Xalq Respublikasi bilan Markaziy Osiyo davlatlari o‘rtasidagi o‘zaro manfaatli hamkorlik alohida o‘rin tutadi. Shu asosda shakllangan “Markaziy Osiyo – Xitoy” formati bugungi kunda nafaqat iqtisodiy, balki geosiyosiy va madaniy jihatdan ham mintaq uchun muhim ahamiyat kasb etmoqda [1].

Mazkur format 2020-yillarda Xitoy tashabbusi bilan mintaqaviy muloqot mexanizmi sifatida yo‘lga qo‘yilgan bo‘lib, u “Bir makon – bir yo‘l” tashabbusining mintaqaviy amaliy ifodasi sifatida qaraladi. Ushbu format siyosiy, iqtisodiy, transport-logistika, energetika, madaniy va xavfsizlik sohalarida ko‘p tomonlama hamkorlikni rivojlantirishni maqsad qilgan. Xitoy tashabbusining asosida Markaziy Osiyoga nisbatan “yaxshi qo‘shnichilik va hamkorlik siyosati” yotadi. Shu bois,

bu format mintaqa davlatlari uchun tashqi siyosatda muvozanatni saqlash, manfaatlar muvofiqligini ta'minlash va global jarayonlarda faol ishtirok etish imkonini bermoqda.

“Markaziy Osiyo – Xitoy” formati doirasida siyosiy barqarorlikni ta'minlash, terrorizm, ekstremizm va transmilliy jinoyatlarga qarshi kurashish masalalari ustuvor yo'nalish sifatida qaralmoqda. Xitoy bu borada mintaqa davlatlari bilan muntazam siyosiy maslahatlashuvlar, xavfsizlik sohasida axborot almashuvi va qo'shma mashg'ulotlarni yo'lga qo'ygan. Natijada mazkur format nafaqat iqtisodiy, balki xavfsizlik sohasida ham muhim mexanizmga aylandi. U global miqyosda mintaqaning tinchlik, barqarorlik va taraqqiyot hududiga aylanishiga xizmat qilmoqda [2].

Iqtisodiy hamkorlik bu formatning eng asosiy ustun yo'nalishlaridan biridir. Xitoyning ulkan bozor imkoniyatlari Markaziy Osiyo davlatlari uchun eksport, investitsiya va texnologik hamkorlik yo'nalishlarini kengaytirish imkonini berdi. Bugungi kunda Xitoy mintaqa davlatlarining eng yirik savdo sheriklaridan biri hisoblanadi. Mintaqaviy savdo hajmi yildan-yilga ortib bormoqda, o'zaro investitsiya oqimlari esa sanoat, qishloq xo'jaligi, kimyo va energetika sohalarini qamrab olgan. Ayniqsa, transport-logistika tarmoqlarini rivojlantirishda “Markaziy Osiyo – Xitoy” formati alohida ahamiyat kasb etmoqda. “Xitoy–Qirg'iziston–O'zbekiston” temir yo'li, “Xorgos” xalqaro logistika markazi, Kaspiy dengizi orqali o'tuvchi multimodal yo'laklar, shuningdek, “Lanzhou – Tashkent” yuk koridorlari kabi loyihalar mintaqani global savdo tizimiga chuqurroq integratsiyalash imkonini bermoqda. Bu esa Markaziy Osiyo davlatlari uchun yangi transport infratuzilmasi, ish o'rinlari, logistika markazlari va eksport salohiyatini oshirish imkonini yaratmoqda.

Energetika hamkorligi ham “Markaziy Osiyo – Xitoy” formatining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Gaz quvurlari tizimi, elektr energiyasi eksporti va qayta tiklanuvchi energiya manbalari bo'yicha qo'shma loyihalar mintaqaning iqtisodiy mustaqilligini mustahkamlashga xizmat qilmoqda. Xitoy kompaniyalari O'zbekiston, Qozog'iston va Turkmanistonda energetika, neft-gaz sanoati hamda quyosh va shamol elektr stansiyalarini rivojlantirish yo'nalishida faol investitsiya kiritmoqda. Shu bilan birga, “yashil energetika” konsepsiyasi doirasida ekologik toza ishlab chiqarish texnologiyalarini tatbiq etish, karbon chiqindilarini kamaytirish, atrof-muhitni muhofaza qilish sohalarida hamkorlik yo'lga qo'yilgan.

Madaniy-gumanitar aloqalarning kengayishi mazkur formatning yana bir muhim yo'nalishidir. Har yili minglab talabalar Xitoy universitetlarida tahsil olmoqda, madaniy haftaliklar, kino festivallari, ilmiy anjumanlar tashkil etilmoqda. Xitoyda Markaziy Osiyo tadqiqot markazlari, O'zbek tili va madaniyati markazlari faoliyat yuritmoqda, mintaqa davlatlarida esa xitoy tili va madaniyatiga bo'lgan qiziqish ortib bormoqda. Bu esa xalqlar o'rtasidagi madaniy yaqinlikni mustahkamlab, “xalq diplomatiyasi”ni rivojlantiradi. Shu tariqa, format siyosiy va

iqtisodiy muloqotni insoniy qadriyatlar, o‘zaro hurmat va do‘stlik tamoyillari bilan boyitmoqda [3].

“Markaziy Osiyo – Xitoy” formatining geosiyosiy ahamiyati ham tobora ortib bormoqda. U nafaqat Xitoy tashqi siyosatining markaziy yo‘nalishlaridan biri, balki mintaqa davlatlari uchun ham global raqobat sharoitida muvozanatli hamkorlik modeli sifatida qaraladi. Xitoyning “G‘arbga ochilish” strategiyasi Markaziy Osiyo orqali Yevropa bozorlariga chiqish imkonini beradi, mintaqa davlatlari esa o‘z navbatida, bu orqali yangi texnologiyalar, investitsiyalar va zamonaviy boshqaruv tajribasini jalb etadi. Shu bois “Markaziy Osiyo – Xitoy” formati mintaqaning iqtisodiy suverenitetini mustahkamlovchi, siyosiy mustaqilligini ta‘minlovchi va madaniy uyg‘unlikni rivojlantiruvchi omilga aylanmoqda.

Ushbu formatning amaliy natijalari ham sezilarli. Xitoyning Markaziy Osiyo davlatlariga to‘g‘ridan-to‘g‘ri investitsiyalari 15 milliard dollardan oshgan, mintaqaviy infratuzilma loyihalari doirasida minglab yangi ish o‘rinlari yaratilgan. O‘zbekiston, Qozog‘iston, Turkmaniston, Qirg‘iziston va Tojikiston o‘rtasidagi savdo aylanmasi keskin oshgan. Shu bilan birga, pandemiya davrida tibbiy yordam, vaksina yetkazib berish, hamda onlayn ta‘lim platformalari orqali insonparvarlik yo‘nalishidagi hamkorlik kuchaydi.

“Markaziy Osiyo – Xitoy” formati faqat iqtisodiy yoki siyosiy muloqot doirasi bilan chegaralanib qolmay, balki madaniy-gumanitar sohalarida ham chuqur va tizimli hamkorlikni yo‘lga qo‘ydi. Bugungi kunda ikki hudud o‘rtasidagi munosabatlarning eng muhim yo‘nalishlaridan biri sifatida madaniyat, ta‘lim, fan, san‘at va turizm sohalarida o‘zaro almashinuv tobora kengayib bormoqda. Bu holat davlatlararo diplomatiyani “yumshoq kuch” (soft power) tamoyillari asosida boyitib, xalqlar o‘rtasidagi ishonch, do‘stlik va bir-birini anglashni mustahkamlashga xizmat qilmoqda [4].

Har yili o‘tkaziladigan talaba va o‘qituvchi almashinuvi dasturlari, ijodiy haftaliklar, ilmiy-amaliy konferensiyalar, madaniyat kunlari va turizm festivallari bu yo‘nalishdagi muhim amaliy qadamlar hisoblanadi. O‘zbekiston, Qozog‘iston, Qirg‘iziston, Turkmaniston va Tojikiston oliy ta‘lim muassasalari Xitoy universitetlari bilan bevosita hamkorlik aloqalarini yo‘lga qo‘ygan bo‘lib, o‘nlab qo‘shma dasturlar, til markazlari va ilmiy laboratoriyalar faoliyat yuritmoqda. Ayniqsa, Xitoy Xalq Respublikasi oliygohlarida Markaziy Osiyo tarixi, siyosati, tillari va madaniyati bo‘yicha maxsus markazlarning tashkil etilgani bu mintaqaga nisbatan ilmiy va strategik qiziqishning ortib borayotganidan dalolat beradi.

O‘z navbatida, Markaziy Osiyo davlatlarida ham xitoy tili, adabiyoti, falsafasi va an‘anaviy san‘atiga bo‘lgan e‘tibor sezilarli darajada ortgan. Poytaxtlar va yirik shaharlarida faoliyat yuritayotgan Konfutsiy institutlari xitoy tilini o‘qitish bilan bir qatorda, qadimiy xitoy madaniyatini, kaligrafiya, milliy kuy va raqs san‘atini, choy marosimlarini, falsafiy merosni

targ'ib qilmoqda. Bu o'zaro madaniy muloqot xalqlarni bir-biriga yaqinlashtirib, tarixiy aloqalarning zamonaviy davomiyligini ta'minlayapti.

Madaniy hamkorlikning yana bir muhim jihati – turizm sohasining jadal rivojlanishidir. Xitoy sayyohlarining O'zbekiston, Qozog'iston, Qirg'iziston va Tojikistonga oqimi so'nggi yillarda sezilarli darajada ortdi. Samarqand, Buxoro, Xiva, Turkiston, Issiqko'l kabi tarixiy markazlar Xitoy bilan qadimiy "Ipak yo'li" aloqalarining jonlanishida muhim rol o'ynamoqda. Shu bilan birga, Xitoyning Dunxuan, Si'an, Lanzhou, Gansu kabi shaharlarida o'tkazilayotgan "Markaziy Osiyo madaniyat haftaliklari" xalqlar o'rtasidagi o'zaro hurmat va qadriyatlar uyg'unligini yanada mustahkamlab kelmoqda.

Fan va innovatsiya sohasida ham hamkorlik ko'lami kengaymoqda. Qo'shma ilmiy tadqiqot markazlari, yosh olimlar uchun grant dasturlari, raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt sohalaridagi qo'shma tashabbuslar orqali yangi avlod mutaxassislarini tayyorlashga alohida e'tibor qaratilmoqda. Xitoyning ilg'or ilmiy bazasi hamda Markaziy Osiyoning tabiiy va intellektual salohiyati uyg'unlashib, mintaqaning innovatsion raqobatbardoshligini oshirmoqda. Shu tariqa, "Markaziy Osiyo – Xitoy" formati nafaqat madaniy, balki ilmiy uyg'unlik maydoniga ham aylanmoqda.

Bu hamkorlik, eng avvalo, o'zaro anglashuv madaniyatini mustahkamlaydi. Xitoy va Markaziy Osiyo xalqlari tarixan umumiy qadriyatlarga, qadimiy savdo yo'llariga, diniy bag'rikenglik va tinchliksevarlik an'analarga ega. Bugungi hamkorlik ana shu tarixiy ildizlarga tayanib, zamonaviy davrda yangi mazmun kasb etmoqda. U xalqlar o'rtasida ishonch muhitini yaratadi, kelajak avlod ongida mintaqaviy birdamlik, madaniy bag'rikenglik va o'zaro mas'uliyat g'oyalarini shakllantiradi.

Bugungi kunda "Markaziy Osiyo – Xitoy" formati nafaqat mintaqaviy, balki global miqyosda ham muhim geosiyosiy omilga aylanib bormoqda. Xitoyning tashqi siyosatidagi "g'arbga ochilish" strategiyasi Markaziy Osiyo davlatlarining milliy manfaatlari bilan uyg'unlashib, mintaqani Yevroosiyo makonining eng muhim geoiqtisodiy halqasiga aylantirdi. Ushbu format orqali Xitoy o'zining energetika, transport, savdo va investitsiya yo'nalishlarini Markaziy Osiyo orqali Yevropaga bog'lab, keng mintaqaviy integratsiyani shakllantirmoqda.

Markaziy Osiyo mamlakatlari esa bu jarayonda muhim geostrategik o'ringa ega bo'lib, tashqi siyosatda muvozanatni saqlash, turli global markazlar bilan aloqalarni diversifikatsiya qilish imkoniyatiga ega bo'ldi. "Markaziy Osiyo – Xitoy" formati ularga Rossiya, Turkiya, Yevropa Ittifoqi, AQSh, Hindiston va Yaponiyaga nisbatan muvozanatli siyosat yuritish, o'z milliy manfaatlarini ta'minlashda ko'pvektorli yondashuvni saqlash imkonini beradi.

Xitoy uchun bu format "Bir makon – bir yo'l" tashabbusining yurak qismi hisoblanadi. Aynan Markaziy Osiyo orqali Yevropa bozorlariga chiqish, energetik xavfsizlikni ta'minlash,

transport yo‘laklarini barqaror ishlatish imkoniyati vujudga keladi. Shu bilan birga, formatning siyosiy mazmuni ham ortib bormoqda — u orqali Xitoy o‘zining tinchlikparvar diplomatiyasini, iqtisodiy hamkorlik asosida barqaror rivojlanish modelini ilgari surmoqda [5].

Markaziy Osiyo mamlakatlari ham bu jarayon orqali mintaqada muvozanatli siyosiy muhit yaratishga, iqtisodiy mustaqilligini mustahkamlashga va mintaqaviy integratsiyani kuchaytirishga erishmoqda. Shu jihatdan “Markaziy Osiyo – Xitoy” formati geosiyosiy raqobat emas, balki o‘zaro manfaatlar uyg‘unligiga asoslangan yangi hamkorlik modeli sifatida e’tirof etilmoqda.

Bundan tashqari, format mintaqaviy diplomatiyaning yangi uslubini shakllantirdi. U BMT, Shanxay hamkorlik tashkiloti, Turk davlatlari tashkiloti, IHT, Yevroosiyo iqtisodiy ittifoqi kabi tuzilmalar bilan hamohang ishlaydi. Bu esa siyosiy raqobatni emas, balki mintaqaviy barqarorlikni ta’minlashga yo‘naltirilgan sinergiya yaratadi.

“Markaziy Osiyo – Xitoy” formati XXI asrda shakllangan eng muvaffaqiyatli mintaqaviy diplomatik platformalardan biri sifatida e’tirof etilmoqda. U mintaqaviy integratsiyaning yangi modeli bo‘lib, siyosiy barqarorlikni ta’minlash, iqtisodiy taraqqiyotni jadallashtirish, transport va energetika tizimlarini rivojlantirish, madaniy yaqinlikni mustahkamlash hamda xalqlar o‘rtasida o‘zaro ishonchni kuchaytirishda beqiyos ahamiyat kasb etadi [6].

Bu format o‘zaro manfaat, tenglik, suverenitetga hurmat va barqaror hamkorlik tamoyillariga asoslanadi. Shu bois u nafaqat Markaziy Osiyo davlatlari, balki butun Osiyo qit’asining tinchlik, taraqqiyot va farovonlik yo‘lida muhim strategik o‘rinni egallaydi. “Markaziy Osiyo – Xitoy” formati – bu o‘tgan asrlar davomida shakllangan tarixiy aloqalarning zamonaviy davrda qayta tiklanishi, madaniyatlararo muloqotning yangi bosqichidir. U mintaqani kelajakda yagona iqtisodiy, madaniy va insoniy makonga aylantiruvchi kuch sifatida tobora mustahkamlanib bormoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Kozhirova, S. «Cooperation of China with the countries of Central Asia: politics, economics, safety and cultural-humanitarian exchanges». Journal of Central Asian Studies, 1(1), 2024.
2. Bird, J. «Reshaping economic geography in Central Asia?». Journal of Comparative Economics, 48(2), 2020, pp. 261-285.
3. Jash, A. «China’s BRI in Central Asia & Its Impact: Implications for Regional Development». F1000Research, 2024.
4. «China–Central Asia Mechanism Construction: A New Driver for Eurasian Cooperation». Shanghai Institute for International Studies, 2024.
5. «China–Central Asia Cooperation Forum highlights strong consensus». Global Times, November 6 2025.

6. «China builds bridges on uneven ground in Central Asia». East Asia Forum, August 23 2025.